

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc/03/29.12.2022/Ss.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

ABDURAHMONOV OBIDJON NABIJON O‘G‘LI

HOZIRGI AFG‘ONISTON DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVIDA
PUSHTUNLARNING O‘RNI

23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar

Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата доктор философии (PhD) по политическим наукам

Contents of the Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in Political Science

Abdurahmonov Obidjon Nabijon o‘g‘li

Hozirgi Afg‘oniston davlat va jamiyat boshqaruvida pushtunlarning o‘rni.....3

Абдурахмонов Обиджон Набижон угли

Роль пуштунов в государственном и общественном управлении современного Афганистана.....25

Abdurahmonov Obidjon Nabijon ugli

The role of the pashtuns in the current Afghanistan state and society.....50

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2023.2.PhD/Ss401 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsuos.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Bo'ronov Suhrob Muhammadi o'g'li siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	Haydarov Abdusamat Axatovich siyosiy fanlar doktori, professor Akmalov Shoislom Ikromovich siyosiy fanlar nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «__» _____soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-34-24; faks: (998971) 233-52-24; e-mail: tsuos@info.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-45-21. faks: (998971) 233-52-24

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «__» _____kuni tarqatildi.

(2025-yil «__» _____dagi ____-raqamli reyestr bayonnomasi).

D.B.Sayfullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

D.I.Madaminova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, siyosiy fanlar doktori, dotsent

E.S.Sultonova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, siyosiy fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Global miqyosdagi o'zgarishlar natijasida etnik nizo va ziddiyatlarning ko'lami ortib borayotgan, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi ishonchsizlik inqirozi kuchayib, millatlararo munosabatlarda xalqaro huquq tamoyillariga zid xatti-harakatlar sodir etilayotgan hozirgi murakkab davrda ko'p tomonlama preventiv hamkorlik chora-tadbirlarini ishlab chiqish vazifasi kun tartibiga chiqmoqda. Shu bois jahonning strategik ahamiyatga molik mintaqalarida davlatlararo munosabatlarni konstruktiv muloqot, ahil qo'shnichilik, millatlararo totuvlik, o'zaro ishonch, tenglik va hurmat tamoyillari asosida rivojlantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon konfliktologiyasi etnik nizolarni hal etish bo'yicha yangicha konseptual yondashuvlarni ilgari surishga katta ehtiyoj sezmoqda. Ushbu zarurat Afg'oniston misolida pushtunlar va boshqa oz sonli etnoslar o'rtasidagi kelishmovchilik va ziddiyatlarda yaqqol namoyon bo'layotgani soha olimlari va xalqaro ilmiy tadqiqot markazlarining diqqat-etiborini o'ziga tortmoqda. Shunday sharoitda Afg'onistondagi qabilaviy va sulolalararo munosabatlar, davlat va jamiyat boshqaruvida qarorlar qabul qilishning "Pushtunvali" shon-sharaf kodeksi va Jirga tamoyillari asosida qabul qilinishi, shuningdek, "pushtunizm"ning jo'g'rofiy kengayish tendensiyasi bir qator ilmiy-tadqiqot doiralari qiziqishi ortishiga hamda pushtunlarning davlat va jamiyat boshqaruviga ta'siri istiqbolini chuqur tadqiq etishga undamoqda.

O'zbekiston tashqi siyosatida Afg'oniston o'lkasida mustahkam va barqaror tinchlik o'rnatish, o'zbek va afg'on xalqlarining asrlar bilan tengdosh rishtalarini o'zaro manfaatli va yaqin qo'shnichilik asosida rivojlantirish vazifalari ustuvor o'rin egallaydi. Shu bilan birgalikda, O'zbekiston Afg'onistondagi hozirgi real vaziyatdan kelib chiqib, ushbu mamlakatning uzoq muddatli tinchligi va barqarorligini ta'minlashda afg'on jamiyatining barcha qatlamlaridan iborat hukumatni shakllantirish vazifasini davlat boshqaruvidagi muhim va fundamental asos, deb hisoblaydi: "Davlat boshqaruvida afg'on jamiyatining barcha qatlamlaridan vakillar keng ishtirok etadigan tarkibni shakllantirish, inson, ayniqsa, xotin-qizlar, barcha milliy va diniy guruhlarining asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash Afg'onistonda uzoq muddatli tinchlik o'rnatishning fundamental asosi bo'lib qolmoqda"¹.

Ushbu dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Afg'oniston: xavfsizlik va iqtisodiy taraqqiyot" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga murojaatnomasi. 26.07.2022. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sahifasi. <https://president.uz/oz/lists/view/5377>

fevraldagi PF-60 son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 15-noyabrdagi PF-5876-son “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati - konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2018-yil 5-apreldagi PF-5400-son “O‘zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda uning mas‘uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, shuningdek, sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirgi Afg‘oniston davlat va jamiyat boshqaruvida kuzatilayotgan o‘zgarishlar, unda pushtunlarning ishtiroki bilan bog‘liq masalalar siyosatshunos ekspertlar, afg‘onshunos olimlarning mamlakatimiz va xorijda chop etgan ko‘plab ilmiy tadqiqotlari, shuningdek, adabiyotlar, ommaviy axborot va internet materiallari asosida o‘rganib chiqildi.

Umuman, muammoni tadqiq etish doirasida adabiyotlar uchta yirik guruhlarga ajratib olindi.

Birinchi guruh. Mazkur guruh Afg‘oniston rasmiy vakillari, olimlari va ekspertlari mulohazalari aks etgan adabiyotlar, pushtu tilidagi materiallardan keltirilgan ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, Z.Jaloliy, H.Halil, H.Haddod, J.Iqbol, B.Achak, M.Xayri, M.Vafoiy, S.Husayniy, M.Mansuriy, S.Haq, B.Zadran, Q.Atoulloxon, S.Kakaxel, Z.Muhaqqiq, N.Misdoq, H.Kokar, A.Habibiy² singari afg‘onistonlik olim va ekspertlarini kiritish mumkin.

Ikkinchi guruh. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlaridan Yu.V.Gankovskiy, R.Abdulloyev, A.Knyazev, I.Aleksandrov, R.Axromov, Sh.Imomov, A.A.Klyosov, X.S.Saidov³ ilmiy ishlarida Afg‘onistondagi etnosiyosiy vaziyat, pushtunlarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki, etnoslararo munosabatlar ta’siri masalalari ochib berilgan. Afg‘onistondagi etnosiyosiy vaziyat bilan bog‘liq muammolarni tahlil etgan mutaxassislar orasida I.M.Reysner, A.Bautin, M.Xanev va Yu.Laletin⁴ alohida ajralib turadi. Ular Afg‘onistonning

² Ushbu mualliflarning tadqiqotlari dissertatsiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” qismida keltirilgan.

³ Ushbu mualliflarning tadqiqotlari dissertatsiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” qismida keltirilgan.

⁴ Рейснер И.М. Развитие феодализма и образование государства у афганцев. – Москва. 1954. – 414 с.; Баутин А.А. Процессы политической фрагментации в Афганистане: проблемы и противоречия (1992-2009 гг.). Автореф. дисс. канд. пол. наук. – Воронеж: 2010; Ханеев М.В. Этнический фактор в политическом

parchalanish jarayonlari, mamlakat siyosiy hayotida etnik omilning o'rnini va ahamiyati, qabilalarning etnopsixologik xususiyatlari masalalarini o'z tadqiqotlarining obyekt sifatida tanlashgan. V.Belokreniskiy, R.Sikoyev, V.Korgun, S.Akimbekov, Ye.Pastuxov, Ye.M.Primakov, U.Nessor, I.Z.Farxutdinov⁵ tadqiqotlarida esa Afg'oniston ichki siyosiy jarayonlari, xususan, "Tolibon" boshqaruvi va uning tashqi kuchlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi hamda Afg'onistondagi vaziyatning Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga ta'siri haqida qiziqarli ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Afg'onistondagi ijtimoiy-siyosiy inqirozlarning sabab va oqibatlari o'zbek olimlarining ham diqqat-e'tiborini doimiy jalb etib keladi. Jumladan, A.Mannonov, A.Haydarov, I.Boboqulov, N.To'laganova, Sh.Akmalov, P.Makkambayev, S.Bo'ronov, R.Rashidov, A.Umarov tadqiqotlari O'zbekiston va Afg'oniston munosabatlari, ushbu o'lkadagi harbiy-siyosiy vaziyat masalalarini o'rganishda muhim ilmiy-nazariy tadqiqotlar hisoblansa, R.Alimov, S.Safoyev, S.Ubaydullayeva⁶ kabi olimlarning tadqiqotlarida Markaziy Osiyo mintaqasiga afg'on omilining ta'siri, yirik kuch markazlarining Afg'oniston bilan bog'liq geosiyosiy manfaatlari xususida e'tiborga molik ma'lumotlar uchraydi.

Uchinchi guruh. Xorijlik taniqli olimlar O.Kero, B.Dupaigne, B.Glatzer, J.Markvart, G.Morgenshteyn, A.Shachan, Ye.Ayzenberg, M.Argaman, S.Aron, Ch.Lindhom, V.Laymer, E.Foster tadqiqotlarida pushtunlarning kelib chiqishi tarixi, ularning madaniyati, urf-odatlarini, an'analari, umuman olganda, ularning o'tmishdan saqlanib kelgan hayot tarzini boshqa xalqlar bilan aloqadorligi jihatlari atroflicha tahlil etiladi. S.Kaufman, L.Bordonaro, S.Harrison, M.Liuhto, J.Kurtzman tadqiqotlari Afg'onistonda "pushtunlashtirish" siyosatining olib borilishi, "Pushtuniston" g'oyasining geosiyosiy ahamiyatini ochib bersa, B.Rubin, T.Barfield, L.Meyzlend, A.Pessala, M.Griffin, B.Hopkins, M.John, K.Katzman⁷ Afg'onistondagi mojarolarga ichki va tashqi omillar ta'siri haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi.

Biroq, o'tkazilgan tadqiqotlar tahlili shundan dalolat bermoqdaki, yurtimiz olimlarining siyosiy fanlar doirasidagi ilmiy ishlarida Afg'oniston davlat va jamiyat boshqaruvida aynan pushtunlarning o'rnini tadqiq etishga oid masalalar kompleks tarzda va yetarlicha tizimli tadqiq etilmagan. Shu nuqtayi nazardan, Afg'onistondagi etnosiyosiy vaziyat va uning Markaziy Osiyo mintaqasiga ta'siri bilan bog'liq masalalarni tadqiq etishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar safini kengaytirish zarurati mazkur tadqiqotning dolzarbligini yanada oshiradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasidan o'rin

строительстве афганской государственности. Автореф. дисс. канд. пол. наук. – Москва: 2010; Лалетин Ю.П. Этнополитические процессы в истории Афганистана XVIII – XX веков. Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Москва: МГИМО, 2000.

⁵ Ushbu mualliflarning tadqiqotlari dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

⁶ Ushbu mualliflarning tadqiqotlari dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

⁷ Ushbu mualliflarning tadqiqotlari dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

olgan hamda “Markaziy va Janubiy Osiyo o‘zaro bog‘liqligining barqaror rivojlanish omillari va istiqboli (O‘zbekistonning tashabbuslari asosida)” amaliy tashabbuskor loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Afg‘onistonda davlat va jamiyat boshqaruvida pushtunlarning o‘rni va ta’sirini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Davlat va jamiyat boshqaruvida etnosiyosiy nizolarni tadqiq etish masalalarini o‘rganish;

Pushtunlarning kelib chiqishiga oid nazariy yondashuvlarni tahlil qilish;

Afg‘onistonda “pushtunizm” nazariyasining konseptual asoslarini ochib berish;

Pushtun sulolalarning Afg‘oniston davlat boshqaruviga ta’sirini tahlil qilish;

Afg‘oniston davlatchiligida Jirga instituti va uning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish;

“Pushtunvali” kodeksining Afg‘oniston jamiyati hayotidagi rolini chuqur tahlil qilish;

Afg‘oniston milliy davlatchilik jarayonlarida “Pushtuniston” omilining davlat boshqaruvida ta’sirini yoritib berish;

“Tolibon” hukumat boshqaruvida pushtunlarning o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatish;

Hozirgi O‘zbekiston-Afg‘oniston munosabatlariga milliy-etnik omillarning ta’sirini tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti: Davlat va jamiyat boshqaruvida etnoslarning jumladan, pushtunlarning tutgan o‘rni tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti: Pushtunlarning kelib chiqishi, ularning Afg‘oniston davlat boshqaruvidagi ishtiroki, “Pushtunvali” kodeksining pushtunlar ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘rni va Afg‘onistondagi milliy-etnik munosabatlarda pushtunlarning ta’siri bilan bog‘liq masalalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada qiyosiy tahlil, davrlashtirish, tizimlashtirish, taqqoslash, kuzatish, mantiqiy-tarixiy yondashuv, kontent va event tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Pushtun jamoalarining Afg‘onistondagi yashash tarzini ifoda etuvchi Melmastiya (mehmondo‘stlik), Nanavati (avf), Meshar (kattalarga hurmat), Nomus, To‘ra, Nang (mardlik), Tsalveshti (qirq qo‘riqchi) va Tabarvoli kabi yozilmagan qonun-qoidalarning jamiyat boshqaruvida hal qiluvchi ta’siri, ushbu qoidalarning pushtunlar tomonidan oliy siyosiy va ijroiya hokimiyat qarorlari qabul qilinishidagi Asosiy Qonun sifatida talqin etilishi “Pushtunvali” kodeksi va jirga tamoyillaridan kelib chiqib asoslab berilgan;

Afg‘oniston davlatchilik jarayoniga asos solingan uzoq yillik boshqaruvga ko‘ra pushtunlarning eng yirik etnos sifatida shakllanishi, Afg‘oniston xalqlarini pushtun etnik birligi va etnogenezi qoidalarga binoan boshqarish hamda afg‘on o‘lkasining butun hududida pushtunlarning hukmron mavqeyini saqlash va

oshirishga qaratilgan yondashuvlar qadriyatlar assimilyatsiyasini ifoda etuvchi “madaniy pushtunizm” konsepsiyasi asosida isbotlangan;

Afg‘oniston davlat va jamiyat boshqaruvining etnik va urug‘-aymoqchilik an‘analariga ko‘ra davom etishi ijtimoiy-siyosiy islohotlarni keng vakillikka yo‘naltirilgan inklyuzivlik, o‘zaro ishonch, hurmat va tenglik ruhida amalga oshirishga hamda pushtun sulolalari o‘rtasidagi hokimiyat uchun kurash va ichki ziddiyatlarni qabilaviy konsensus asosida hal qilish zaruriyatiga sabab bo‘layotgani pushtunlarning Popalzoy va Barakzoy sulolalari boshqaruviga ko‘ra asoslab berilgan;

O‘zbekiston va Afg‘oniston xalqlari o‘rtasidagi ahil qo‘shnichilik, millatlararo totuvlik va do‘stlik aloqalarini mustahkamlashda madaniyatlararo muloqotni kengaytirish, o‘zbek va afg‘on xalqlarining mushtarak merosi, milliy urf-odatlari, an‘ana va qadriyatlarini ikki tomonlama ta‘lim, fan va madaniy-gumanitar sohadagi hamkorlikka tayanib rivojlantirishda do‘stlik jamiyatlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash kabi ustuvor maqsaddan kelib chiqqan holda, O‘zbekistonda Afg‘on milliy-madaniy markazini tashkil etish zaruriyati dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Afg‘onistonda davlat va jamiyat boshqaruviga ta‘sir etuvchi etnik omillar tahlil qilinib, etnoslararo milliy birlikni ta‘minlashga doir taklif va tavsiyalar ilgari surilgan;

O‘zbekiston-Afg‘oniston o‘rtasidagi milliy-etnik munosabatlarni yanada rivojlantirish maqsadida O‘zbekistonda Pushtu tili notiqlik tanlovini, shunga hamohang tarzda Afg‘onistonda O‘zbek tili notiqlik tanlovini o‘tkazish taklifi ilgari surilgan, sohaga doir ilmiy-tadqiqot va o‘quv jarayonlarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan “Pushtunizm” nazariy-pragmatik yondashuvlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada 200 dan ziyod ilmiy-nazariy adabiyotlar va manbalardan foydalanilgan. Ilmiy adabiyotlar va keltirilgan ma‘lumotlar ishonchli bo‘lib, tadqiqot natijalari afg‘onshunos olimlar, ekspertlar hamda xorijiy aqliy markazlar xulosalariga, ishonchli rasmiy manbalar, tahliliy hujjatlar va internet manbalariga tayanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati uning materiallaridan siyosatshunoslik, jahon siyosati, xalqaro munosabatlar, mintaqaviy-siyosiy jarayonlar, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlik masalalariga oid darslik va qo‘llanmalar tayyorlashda, ichki siyosatga doir tadqiqotlar o‘tkazishda foydali bo‘lishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa tadqiqot natijalari mahalliy va xorijiy afg‘onshunos olimlar, sharqshunos-siyosatshunos ekspertlar, ilmiy izlanuvchilar va tadqiqotchilarning tadqiqot ishlari, fundamental va amaliy loyihalar, shuningdek, OTMLlarda o‘qitiladigan maxsus kurslarda qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Hozirgi Afg‘oniston davlat va jamiyat boshqaruvida pushtunlarning o‘rni” bo‘yicha olingan tadqiqot natijalari asosida:

O‘zbekiston va Afg‘oniston xalqlari o‘rtasidagi ahil qo‘shnichilik, millatlararo totuvlik va do‘stlik aloqalarini mustahkamlashda madaniyatlararo muloqotni kengaytirish, o‘zbek va afg‘on xalqlarining mushtarak merosi, milliy urf-odatlari, an‘ana va qadriyatlarini ikki tomonlama ta‘lim, fan va madaniy-gumanitar sohadagi hamkorlikka tayanib rivojlantirishda do‘stlik jamiyatlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash kabi ustuvor maqsaddan kelib chiqqan holda, O‘zbekistonda Afg‘on milliy-madaniy markazini tashkil etish zaruriyati bo‘yicha xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining axborot-tahliliy hujjatlarini tayyorlashda Janubiy Osiyo, Yaqin, O‘rta Sharq va Afrika mamlakatlari bilan hamkorlik boshqarmasi tomonidan foydalanilgan. (Tashqi ishlar vazirligining 2024-yil 6-iyundagi 18-130/1721-sonli dalolatnomasi). Natijada dissertatsiyada bildirilgan ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar sohaga oid axborot-tahliliy bazani takomillashtirishga va amalda qo‘llashga xizmat qilgan.

Afg‘oniston davlat va jamiyat boshqaruvining etnik va urug‘-aymoqchilik an‘analariga ko‘ra davom etishi ijtimoiy-siyosiy islohotlarni keng vakillikka yo‘naltirilgan inklyuzivlik, o‘zaro ishonch, hurmat va tenglik ruhida amalga oshirishga hamda pushtun sulolalari o‘rtasidagi hokimiyat uchun kurash va ichki ziddiyatlarni qabilaviy konsensus asosida hal qilish zaruriyatiga sabab bo‘layotgani pushtunlarning Popalzoy va Barakzoy sulolalari boshqaruviga ko‘ra asoslab berilgani bilan bog‘liq ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasining turli millatlar madaniyatiga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlarini tashkil etishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasining 2024-yil 27-iyundagi 14-07-1036-sonli dalolatnomasi). Natijada, olingan nazariy xulosalar va ilmiy natijalar jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qilgan.

Pushtun jamoalarining Afg‘onistondagi yashash tarzini ifoda etuvchi Melmastiya (mehmondo‘stlik), Nanavati (avf), Mesher (kattalarga hurmat), Nomus, To‘ra, Nang (mardlik), Tsalveshti (qirq qo‘riqchi) va Tabarvoli kabi yozilmagan qonun-qoidalarning jamiyat boshqaruviga hal qiluvchi ta‘siri, ushbu qoidalarning pushtunlar tomonidan oliy siyosiy va ijroiya hokimiyat qarorlari qabul qilinishidagi Asosiy Qonun sifatida talqin etilishi “Pushtunvali” kodeksi va jirga tamoyillaridan kelib chiqib asoslab berilganiga oid xulosalardan O‘zbekistonda Shanxay Hamkorlik Tashkilotining Xalq diplomatiyasi markazining “Xalq diplomatiyasi – Markaziy Osiyoda tinchlik, do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilikni mustahkamlashning muhim omili” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaning ishida foydalanilgan. (O‘zbekistonda Shanxay hamkorlik tashkiloti Xalq diplomatiyasi markazining 2024-yil 7-iyundagi 270/24-sonli dalolatnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan taklif va xulosalar

Markaziy Osiyo, Pokiston va afg'on xalqlari o'rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalarni yanada mustahkamlash, ular bilan manfaatli ilmiy hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilgan.

Afg'oniston davlatchilik jarayoniga asos solingan uzoq yillik boshqaruvga ko'ra pushtunlarning eng yirik etnos sifatida shakllanishi, Afg'oniston xalqlarini pushtun etnik birligi va etnogenezi qoidalariga binoan boshqarish hamda afg'on o'lkasining butun hududida pushtunlarning hukmron mavqeini saqlash va oshirishga qaratilgan yondashuvlar qadriyatlar assimilyatsiyasini ifoda etuvchi "madaniy pushtunizm" konsepsiyasi asosida isbotlangani to'g'risidagi xulosalardan TDSHUda bajarilgan IL-5221091507 "Markaziy va Janubiy Osiyoning o'zaro bog'liqligining barqaror rivojlanish omillari va istiqbollari (O'zbekistonning tashabbuslari asosida)" loyihasi doirasida tashkil etilgan ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlarini tayyorlashda foydalanilgan. (Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining 2024-yil 28-iyundagi 01-04-08|1443-sonli dalolatnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan taklif va xulosalar loyiha doirasida nashr etilgan monografiyalarda Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalari, Afg'onistondagi etnosiyosiy vaziyatning mintaqalararo hamkorlik istiqbollarini yoritishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro darajadagi va 3 ta respublika miqyosidagi konferensiyada muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, 1 ta monografiya va 1 ta ilmiy risola nashr ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, jami 161 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, mavzu bo'yicha xorijiy adabiyotlar sharhi amalga oshirilgan, mavzuning o'rganilganlik darajasi hamda uning dissertatsiya ishi bilan bog'liqligi bayon qilingan, ishning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti belgilangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi hamda asosiy tadqiqot usullari ko'rsatib berilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiya va e'lon qilingan ishlar keltirilgan.

Tadqiqotning "**Afg'onistonda pushtunlar omilini tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida etnosiyosiy nizolarni tadqiq

etishda primordializm, instrumentalizm va konstruktivizm nazariyalari ko‘rib chiqildi. Shuningdek, Afg‘onistonda etnik omilning huquqiy asoslari, Afg‘onistonda etnoslararo munosabatlar, pushtun millatining kelib chiqish tarixi, pushtun atamasining paydo bo‘lishi, pushtunlarning zamonaviy afg‘on davlatchiligida tutgan roli, pushtun madaniyati, tili, “Pushtunvali” kodeksi singari mavzular o‘rin olgan.

Pushtunlarning kelib chiqish tarixi, an‘analari, turmush tarzi, ularning afg‘on jamiyatidagi o‘rni va roli bilan bog‘liq masalalarni tadqiq etish mamlakatda tinchlik va barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan nazariy-metodologik yondashuvlarni ishlab chiqishga asos bo‘ladi. Zero, pushtunlar afg‘on davlatchiligi shakllanishi va rivojlanishida, turli xil etnoslararo munosabatlarda katta ta‘sirga ega bo‘lib, ushbu etnik guruhni ilmiy-nazariy, afg‘onlararo tinchlik jarayonlariga ta‘siri xususidagi ilmiy yondashuvlarni chuqur tahlil qilish zarurati bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ta‘kidlab o‘tish o‘rinliki, pushtunlarni kelib chiqishiga oid muhokamalar serqirra bo‘lib afg‘onshunos tarixchi olimlar, tadqiqotchilar, etnograflar, atropologlar, tilshunos mutaxassislarning ilmiy tadqiqotlarida bu xususida tili, urf-odati, qadriyatlarini, tashqi ko‘rinishiga qarab turlicha yondashuvlarga kelganligiga guvoh bo‘lamiz. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib aytish mumkinki, pushtunlarning nasl-nasabini tarixiy, etnomadaniy, lingvistik, mifologik yondashuvlarga ko‘ra tahlil qilingan. Ushbu yondashuvlarda pushtunlarning kelib chiqishi yahudiy va oriylarga borib taqalishi xususidagi olimlarning turlicha qarashlari tahlil qilingan.

Shuningdek, pushtunlarning Afg‘oniston jamiyat va davlat boshqaruvini “pushtunlashtirish”ga qaratilgan siyosati “Pushtunizm” nazariyasi orqali ifodalangan. “Pushtunizm” tub negizida davlat va jamiyat boshqaruvida pushtunlarning ustunligini saqlab qolish, pushtu tilini yagona davlat tiliga aylantirish, pushtun madaniyati asosida boshqa millatlarni birlashtirish, etnoslar tomonidan sodir etiladigan har qanday ehtimoliy harakatlarni oldini olish hamda pushtunlarni doimiy qo‘llab-quvvatlash yotadi. Shuningdek, “pushtunizm” nazariyasiga ko‘ra pushtunlarni jamiyatda eng yirik etnik guruh sifatida namoyon etish, Afg‘onistonning asosiy va asl aholisi pushtunlar ekanligini targ‘ib qilish hamda mamlakatdagi boshqa etnik guruhlar va mazhab vakillarining davlat va jamiyat boshqaruvida keng imkoniyatlarga egalik qilishiga qarshilik ko‘rsatish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Darhaqiqat, “pushtunizm” negizida “yagona afg‘on millati” g‘oyasi ostida Afg‘onistondagi barcha millatlarni pushtunlashtirish siyosati turadi. Mazkur siyosatning yorqin misolini mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy muammolarni yengillashtirish, millatlararo tinchlikni mustahkamlash hamda ijtimoiy va milliy birlikni ta‘minlay oladigan mafkura ishlab chiqish harakatlarida ko‘rish mumkin. Bizningcha, “pushtunizm” nazariyasining mazmun-mohiyati va ilmiy asoslarini ochib berish uchun uni *madaniy* va *lisoniy pushtunizm*ga ajratib tadqiq etish har jihatdan o‘rinli bo‘ladi.

Dissertatsiyaning **“Afg‘onistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga pushtunlarning ta‘siri”** deb nomlangan ikkinchi bobida pushtun sulolalarning

Afg‘oniston davlat boshqaruviga ta’siri ochib berilgan. Shu bilan bir qatorda, bu bob Afg‘oniston davlatchiligida Jirga instituti va uning o‘ziga xos xususiyati hamda “Pushtunvali” kodeksining Afg‘oniston jamiyati hayotidagi rolini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Pushtun etnik guruhi 60 dan ortiq katta qabilalardan tashkil topgan. Mazkur qabilalar, o‘z navbatida, mayda urug‘larga bo‘linib ketadi. Antropolog Tomas Barfild pushtunlarni to‘rt qismga ajratadi: durroniylar, gilzoylar, gurgushtlar va karlanrilar. Uning ta’kidlashicha, durroniylar (Abdaliy nomi bilan tanilgan) Qaysning birinchi o‘g‘li avlodlari bo‘lib, tarkibiga Achakzoy, Alizoy, Nurzoy, Alikozoy, Barakzoy, Muhammadzoy, Popolzoy, Isoqzoylar kiradi. Gilzoylar (Xalji yoki G‘alji deb ham ataladi) Qaysning qiz farzandi avlodlari bo‘lib, tarkibiga Sulaymon Xel, Ahmadzoy, Xarrutiy, Hotakiy, Tarakiylar kiradi. Gurgushtlar Qaysning uchinchi o‘g‘li avlodlari bo‘lib, tarkibiga Musa Xel, Safi kabi urug‘lar kiradi. Karlanrilar (inglizlar tomonidan “patanlar” deb nomlanadi) kelib chiqishi noma’lum asrab olingan bolaning avlodlari bo‘lib, tarkibiga Tani, Mangal Vardak, Orakzoy, Afridiy, Zadran, Maxsud va Xugianiylar kiradi.

Hotakiy sulolasi (Gilzoy). Mustaqil Afg‘oniston davlatini tashkil etilishida dastlabki harakatlarni boshlagan va amalda hokimiyatni boshqarib kelayotgan “Tolibon” harakatining asoschilari mazkur sulola avlodlari hisoblanadi. Garchi gilzoy qabilasining sulolalari mustaqil afg‘on davlatchiligini paydo bo‘lishida mislsiz xizmat ko‘rsatgan bo‘lsa-da, amalda mustaqil Afg‘oniston davlatiga Abdali qabilasining Popolzoy urug‘idan bo‘lgan sadazoylar sulolasi vakili Ahmadshoh Sadazoy tomonidan asos solindi. Taassufki, har ikki qabila pushtun etnik guruhiga kirsa-da, ular o‘rtasida oliy hokimiyatga egalik qilish masalasida murosasizlik mavjud. Xususan, gilzoylar orasida “Kim Kobulda hukmronlik qilmoqchi bo‘lsa, avvalo, gilzoylar bilan sulh tuzishi va ularning shartlariga ko‘ra kelishuvga erishishi kerak⁸”.

Sadozoylar sulolasi. Mustaqil Afg‘oniston davlati tashkil topgandan beri o‘tgan davr mobaynida oliy hukumat abdali qabilasining Popolzoy va Barakzoy sulolalari tomonidan boshqarib kelindi. Sadozoylar sulolasi mustaqil Afg‘oniston davlatining poydevorini asos solib, mamlakatning uzoq yillik tarixi barpo etilishiga zamin yaratdi. Xususan, ushbu sulola davrida mamlakat tarixidagi dastlabki muntazam armiya tashkil etildi va u eng yirik pushtun qabilalari yashagan hududlarni o‘z ichiga oldi.

Barakzoylar sulolasi. Afg‘oniston davlatchilik tarixida katta mavqega ega bo‘lgan durroniylar qabilasidan yana biri barakzoylar sulolasi 1826-yilda davlat boshqaruvini sadozoylardan o‘z qo‘liga oladi. Qariyb ikki asr oliy hokimiyatni boshqargan sulolaning yorqin namoyandasi Do‘st Muhammadxon bo‘lib, manbalarda Muhammadzoylar sulolasining asoschisi sifatida qayd etiladi. Tadqiqotchi Alfred Jasinsning pushtun sulolalarining davlat boshqaruvidagi roli xususida quyidagi fikrlari e’tiborga molikdir: “Zamonaviy Afg‘oniston tarixidagi

⁸ Zeynep Tuba Sungur. Articulation of tribalism into Modernity: The Case of Pashtuns in Afghanistan. In the program of Middle East Studies. 2013. –P.14.

markaziy hukumatlar doimiy ravishda ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya islohotlarini amalga oshirishga urinib koʻrdilar, ammo maʼlum darajada qabilalarning yordami bilan muvaffaqiyatga erishdilar. Hukumatlar qabila madaniyatiga (masalan, Sovet istilosiga olib kelgan kommunistik mafkura) mafkura yoki islohotlarni amalga oshirganda pushtun qabilaviy va diniy jamoalari qoʻzgʻolon koʻtaradilar, natijada, hukumatlar agʻdariladi yoki ochiq tartibsizlik paydo boʻladi. Bu mamlakatni boshqarayotgan pushtunlar bilan qabila jamoalaridagi pushtunlar oʻrtasida farq borligini koʻrsatadi⁹.

Qayd etish oʻrinliki, qariyb uch asrdan buyon pushtun sulolalarining boshqaruvi davrida tashqi va ichki muammolarga qaramasdan mamlakat mustaqilligi saqlab qolindi. Biroq, shuni taʼkidlash lozimki, etnoslar va sulolalar oʻrtasida davom etib kelayotgan hokimiyat uchun kurash, etnik ozchiliklarning huquq va erkinliklari yoʻlidagi qarshilik harakatlari natijasida Afgʻoniston ulkan muammolar girdobida qoldi.

Jirga afgʻonlar oʻrtasida jamoa-qabila tuzumi davrida, yaʼni ilk afgʻon davlat tuzilmalari vujudga kelgan paytlarda ham mavjud boʻlgan. Bu tadqiqotchilar tomonidan deyarli oʻrganilmagan qiziqarli tarixdir. Shuni alohida taʼkidlash kerakki, qabilaning eng muhim masalalari jirgalarda hal qilingan. Qolaversa, Birinchi Loʻya Jirga Kushonlar imperatori Kanishka davrida, jirga rasmiy huquqiy maqomga ega boʻlgan paytda chaqirilgan. Kanishka davrida unga diniy ahamiyat berilgan. Darhaqiqat, uning davrida tashkil etilgan kengashlar juda katta muvaffaqiyat qozonadi hamda tarixga “Kanishka jirgasi” nomi bilan kiradi. Loʻya Jirga koʻp asrlar davomida afgʻonlarning ajdodlaridan meros boʻlib kelayotgan qadimiy anʼanalaridan biridir¹⁰. Afgʻonshunos olim X.Xashimbekov afgʻon zamonaviy davlatchiligidagi birinchi Loʻya Jirga tarixi XVIII asrdan boshlanishi (yaʼni Qandahorda boʻlib oʻtgan Loʻya Jirgada Ahmadshoh Durrioniyni davlat rahbari etib tayinlanishi) taʼkidlaydi¹¹. Mustaqil Afgʻoniston davlatining paydo boʻlishi bilan qabilalararo Loʻya Jirga davlat tuzumining asosiy elementlaridan biriga aylandi hamda vaqt oʻtishi bilan anʼanaviy Loʻya Jirga instituti sezilarli oʻzgarishlarga uchradi. Chunki, Afgʻoniston hukumatlari mamlakatda ichki qonuniylikka erishish, oʻz qarorlarini legitimlashtirish va xalq tomonidan qoʻllab-quvvatlashni kuchaytirish uchun doimo Jirga institutlaridan foydalanib kelgan. Masalan, Afgʻoniston Islom Respublikasi Prezidentlari Hamid Karzay va Ashraf Gʻani hukumati davrida ham bir necha bor “Loʻya Jirga” tashkil etilgan. Jumladan, mamlakatdagi soʻnggi milliy darajadagi Loʻya Jirga Afgʻonistonning sobiq Prezidenti Ashraf Gʻaning buyrugʻi bilan 2020-yil avgust oyida “Tolibon” mahbuslarini ozod etishga bagʻishlab oʻtkazilgan edi.

⁹ Alfred Jasins. The Afghan Government's Relationship with the Pashtun Community and its effect on Stability; a Comparative Approach. 2012. – P.7.

¹⁰ Traditional Loya Jirga 1: Why the Jirga? <https://www.afghanistan-analysts.org/en/reports/political-landscape/traditional-loya-jirga-1-why-the-jirga/>

¹¹ Хашимбеков Х. Лоя джирга как представительный орган государственной власти Афганистана. // В. Коргун. Афганистан в начале XXI Века. Москва. 2004. – С.76.

Qayd etish kerakki, jamiyatdagi mavjud muammoning ko‘lami va muhimligiga ko‘ra jirgalar turli bosqichlarda o‘tkaziladi. Afg‘onistonda Jirga instituti uch bosqichda – mahalliy, qabilaviy va milliy darajada faoliyat yuritadi. Mahalliy darajadagi jirgalar Afg‘onistonda qadim zamonlardan beri mavjud. Ular cheklangan doiraga ega.

Pushtunlarning hayot tarzi “Pushtunvali” shon-sharaf kodeksiga asoslanadi. Ularning o‘ziga xos madaniyatida mazkur kodeksning o‘rni yuqori ahamiyat kasb etadi. Binobarin, pushtunlar uchun muhim bo‘lgan mehmondo‘stlik, yerlarini, mehmonni, mol-mulkni, oila va ayollarning nomusini asrash hamda pushtu tilida muloqot qilish kabi masalalar aynan “Pushtunvali”da o‘z aksini topadi. “Pushtunvali” shon-sharaf kodeksi me‘yoriy-huquqiy hujjat, an‘analar majmuasi, ba‘zan esa yozilmagan konstitutsiya sifatida tavsiflanadi. “Pushtunvali” kodeksi Afg‘oniston jamiyati hayotida o‘ziga xos mavqega ega. Chunonchi, uzoq yillar davomida Buyuk Britaniya, Sovet Ittifoqi kabi bosqinchi davlatlar bilan raqobatda aholini bir tan-u bir jon bo‘lib, mamlakat mustaqilligini saqlab qolishida kodeksning pushtun millatiga mansub bo‘lgan kishi mard va jasur bo‘lishi hamda urush va notinch paytlarda o‘zining jasurligini namoyon qilishi, o‘z yerini, mulkini va oilasini himoya qilish uchun jasorat ko‘rsatishi (Tura) hamda pushtunlarning yerlari, madaniyati va yurtdoshlarini himoya qilish majburiyati (Zmaka) kabi tushunchalarining rolini inkor etib bo‘lmaydi. Masalan, Ezzat “Pushtunvali”ning asosiy elementidan biri bo‘lib, pushtunlar hayotida juda muhim o‘ringa ega. Chunki, izzatini yo‘qotish ular uchun sharmandalik hisoblanadi. Aksar hollarda pushtunlar oila oldida sharmanda bo‘lgandan ko‘ra o‘limni afzal ko‘rishadi. Shu sababdan oilada, yashab turgan hududida, umuman olganda, jamiyatda o‘z sharafini saqlab qolishga astoydil harakat qilishadi.

Mayor M.Jonning yozishicha, pushtunlarning “Pushtunvali” kodeksi, tom ma’noda, “pushtunlar yo‘li” bo‘lib, ularga ikki ming yildan ortiq vaqt davomida mamlakatda hukmron qabila sifatida mavqeyini saqlab kelishida katta yordam bermoqda. Shu bilan bir qatorda, pushtunlar sababli xalqaro maydonda Afg‘oniston “Imperiyalar qabristoni” nomini olgan va ko‘plab xorijiy bosqinchilarni Afg‘oniston bilan siyosiy o‘yinga kirishdan oldin pushtun qabilaviy ana’nasini o‘rganishga harakat qilib, alal-oqibat mamlakatni tark etishga majbur bo‘lgan¹². Bundan tashqari, mehmondo‘stlik, boshpanasiz kishilarga yordam ko‘rsatish, oilani muqaddas bilish, do‘stga, vatanga, oilaga sadoqatli bo‘lish, iymon-e’tiqodli hamda doimo adolatli bo‘lish kabi insoniy qadriyatlarni mujassamlashtirgan kodeks afg‘on madaniyatini shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot ishining **“Hozirgi Afg‘oniston davlat boshqaruvida pushtunlarning o‘rni: muammolar va istiqbol”** deb nomlangan uchinchi bobida “Pushtuniston” omilining mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar dinamikasiga ta’sir ko‘rsatadigan, mintaqa geosiyosiy xaritasida o‘zgarishlar bo‘lishiga olib

¹² John M. Counterinsurgency: Clear-Hold-Build and the Pashtun Tribes in Afghanistan. Monograph. 2011. – P.3.

keladigan muhim voqea ekanligi va uning mamlakat ichki siyosatiga ta'siriga atroflicha to'xtalib o'tilgan.

Mamlakatda etnoslararo hamjihatlikka ta'sirga ko'ra: Ma'lumki, Afg'oniston davlatchilik tarixining shakllanish jarayonida madaniyati, an'ana va urf-odati bir-biriga yaqin turli xil millat va etnos vakillari katta rol o'ynagan. Garchi zamonaviy Afg'oniston davlatchiligining bunyodkorlari pushtunlar bo'lsa-da, afg'onistonlik tojiklar, hazoralar, o'zbeklar, aymoqlar, turkmanlar, qirg'izlar, balujlar, choraymoqlar, qizilboshlar, pashoiylar, pomiriylar, arablar, gujar, brahui va boshqa millatlarni davlatchilik tadrijidagi o'rnini inkor etib bo'lmaydi. Bu xususida, Kobul universiteti professori Najibullo o'zining "Ariana yoki Afg'oniston" asarining so'zboshisida quyidagicha ta'kidlagan edi: "Afg'oniston tarixida mamlakatdagi barcha millat va xalqlar "afg'onlar" bo'lib, "yagona afg'on xalqi"ni tashkil qilgan. Ilk va o'rta asrlarda (1747-yilda Afg'oniston davlati tashkil topgunga qadar) afg'on zaminida mavjud bo'lgan davlatlarning aholisi "afg'onlar" deb atalgan va ularning birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyati katta sharafiga ega bo'lgan"¹³. Biroq, pushtunlarda millatchilik hamda mustaqil davlat tuzish xohishi yuqori ekanligini alohida qayd etib o'tish lozim.

Mamlakatning hududiy yaxlitligiga ta'siriga ko'ra: Qayd etish joizki, pushtunlarning o'z davlatlarini barpo etish g'oyasi Afg'oniston suverentitetiga, hududiy yaxlitligiga jiddiy ta'sir o'tkazadi. Masalan, ehtimoliy pushtunlar mamlakatini tashkil topishi mamlakatdagi boshqa ko'p sonli etnoslarning ham o'z davlatlarni barpo etish istagini jonlanishiga olib kelishi ehtimoli juda yuqori. Bunga misol sifatida balujlar, hazoralarni keltirib o'tish mumkin.

Mamlakatning tashqi siyosatiga ta'siriga ko'ra: "Pushtuniston" g'oyasi nafaqat ichki siyosiy jarayonlarga ta'sir o'tkazadi, balki davlatning tashqi aloqalariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Birinchi navbatda, qo'shni davlatlar bilan munosabatlar murakkablashadi. Xususan, Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar juda murakkab sanalib, bunda nafaqat o'zaro qarama-qarshiliklar, balki bevosita ikki tomonning manfaatlariga to'la mos keladigan muloqotning mavjudligi buni yaqqol isbotlaydi. Bundan tashqari, Pokiston aholisining taxminan 15 foizdan ortig'ini tashkil etuvchi pushtunlar mamlakatda panjobilardan keyingi ikkinchi ko'p sonli xalq hisoblanadi. Pokistonda pushtunlar Kvettadan shimolda Sulaymon tog' tizmalari bilan Hind daryosi oralig'ida joylashgan, xususan, Balujiston, Federal ma'muriy qabilalar hududi (hozirgi kunda Xaybar-Paxtunxva), Karachida istiqomat qilishadi. Pokiston davlat organlari tizimida, xususan, armiya va politsiyada pushtunlar sezilarli mavqega ega ekanligi bois Pokiston tomoni doim Afg'onistonga oid jarayonlarda faol bo'lib kelgan. Afg'on davlatiga ta'siri nuqtayi nazaridan Pokiston o'ziga xos o'rin tutadi va u alohida e'tiborni talab etadi. Tarixan Afg'oniston va Pokiston munosabatlari muammoli kechganini ta'kidlagan holda, bunda ikki davlatdagi

¹³ Abdulloev R. Influence of the ethnic factor on the formation of Afghan Statehood. Central Asia and the Caucasus. Volume 15 Issue 1 2014. – P.135.

pushtun millatiga mansub aholi istiqomat qiluvchi hududlarda barpo etilishi mo'ljallangan "Pushtuniston" masalasi yetakchilik qilib kelgan¹⁴. Ikki davlatda yashovchi pushtunlarni birlashtiruvchi yagona "Buyuk Pushtuniston" davlatini barpo etishga intilish Afg'oniston va Pokiston o'zaro munosabatlarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, ikki davlat o'rtasida chegaralar masalasida, ya'ni xavfsizlikni ta'minlash, davlat chegaralarining qonuniyligi va uni delimitatsiya hamda demarkatsiya qilishga doir munosabatlarda ham nizolar yuzaga keldi.

Ma'lumki, Afg'onistonda "Tolibon" boshqaruvining o'rnatilishi ikki davrga bo'linadi. Birinchi davr 1996-2001-yillarni o'z ichiga oladi. Ikkinchi davr 2021-yilda Amerika Qo'shma Shtatlari va G'arb kuchlarining Afg'onistondan olib chiqib ketilishi natijasida "toliblar"ning oliy hokimiyatni qayta qo'lga olishi bilan boshlandi. 2021-yilning 15-avgust sanasida "Tolibon"ning Qo'shma Shtatlar va G'arb davlatlarining Afg'oniston zaminidan harbiylarini olib chiqib ketishi natijasida mamlakatda "Tolibon" boshqaruvi qayta o'rnatildi. Garchi Afg'onistonda Milliy Ozodlik Fronti siyosiy muxolifat sifatida mavjud bo'lganligiga qaramay "toliblar" hokimiyatni tez fursatda qo'lga oldi. Bu esa mamlakat qurolli kuchlari va siyosiy institutlari yetarli darajada kuchga ega emasligidan dalolat berar edi. Ammo, "toliblar" tomonidan oliy hokimiyatni qayta egallanishi xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinmadi. Masalan, AQSh va Yevropa Ittifoqi gumanitar yordam ko'rsatishga tayyor ekanliklarini bildirganliklariga qaramay, hali "Tolibon" hukumatini tan olgani yo'q. Rossiya ham "Tolibon" hukumatini tan olishga shoshilmayapti, lekin u bilan aloqada bo'lish maqsadida munosabat o'rnatgan. Xitoy va Pokiston "Tolibon" bilan boshqa davlatlarga nisbatan faolroq ish olib bormoqda¹⁵. Buning bir qator obyektiv va subyektiv sabablari mavjud.

*Birinchi*dan, Afg'oniston sobiq Prezidenti Ashraf G'ani konstitutsiyaga ko'ra iste'foga chiqmasdan mamlakatni tark etganligi natijasida Afg'onistonda konstitutsiyaviy inqiroz muammosi paydo bo'ldi¹⁶. Ya'ni Afg'oniston Islom Respublikasi Konstitutsiyasining 60-moddasiga ko'ra, Prezident iste'fo bersa yoki vafot etsa ushbu konstitutsiya qoidalariga binoan vitse-prezident davlatni boshqarishi belgilangan¹⁷. Ammo, na Ashraf G'ani iste'fo berdi, na vitse-prezident Amrulla Solih davlat boshqaruvini qo'lga oldi. Natijada konstitutsiyaviy inqiroz muammosi paydo bo'ldi. Bu muammo hanuz o'z yechimini topganicha yo'q.

*Ikkinchi*dan, xalqaro hamjamiyat talabiga ko'ra, "toliblar" kafolatlash lozim bo'lgan shartlardan biri, ayollar huquqining ta'minlanish masalasi edi. BMT Bosh kotibining Afg'oniston bo'yicha maxsus vakili vazifasini bajaruvchisi Markus

¹⁴ Рашидов Р.Р. Афғонистонда давлатчилик масаласи: тарих ва ҳозирги замон. – Т.: Нарвуз, 2017. – Б. 179.

¹⁵ Ubaydullayeva S.F. Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik o'zaro bog'liqligi tizimi shakllanishining muammo va istiqbollari. Siyosiy fanlar doktori (DSc) avtoreferati. 2023. –P.17.

¹⁶ سراج الحق بېرک زی خُدران. د نړیوالو قوانینو له مخې د طالبانو حکومت په رسمیت نه پېژندنه حقوقی ستونزی.

(Siraj-ul-Haq Babrak Zee Zadrان. "Tolibon" hukumatini xalqaro huquqqa muvofiq tan olmaslikning huquqiy muammolari. (01.02.2022), <https://www.tolafghan.com/articles/37414>)

¹⁷ Afg'oniston Islom Respublikasi Konstitutsiyasi. Pushtu tilidan Obidjon Abdurahmonov tarjimasini. 2001. – T.: – B.24.

Potselning qayd etishicha, 2021-yil 15-avgustdan beri mamlakatda xavfsizlik bilan bogʻliq vaziyat yaxshilanganiga qaramay, Afgʻoniston xalqi, jumladan, ayollar va qizlar oʻz huquqlaridan toʻliq foydalanishdan mahrum etilgan¹⁸. Xususan, “Tolibon” aksariyat qizlarning oʻrta maktabda oʻqishini, barcha ayollarning universitetlarda tahsil olishini hamda oʻqitishni taqiqlab qoʻygan va ayollarning ishlashiga toʻsqinlik qilgan. Bundan tashqari, 2022-yil dekabr oyidan boshlab ayollarga mahalliy va xalqaro nohukumat tashkilotlarda (NNT) ishlashi taqiqlandi. BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) hisob-kitoblariga koʻra, ayollarning mehnat faoliyatini cheklash 1 milliard dollargacha yoki mamlakat yalpi ichki mahsulotining besh foizigacha boʻlgan iqtisodiy yoʻqotishga olib kelishi mumkin¹⁹. Bu esa iqtisodiy jihatdan qiyin ahvolda boʻlgan oilalarning vaziyatini yanada ogʻirlashishiga sabab boʻladi. Chunki, Jahon oziq-ovqat dasturi (WFP) maʼlumotlariga koʻra, Afgʻoniston aholisining 92 foizi maʼlum darajada oziq-ovqat taʼminotidan mahrum, uch million bola esa oʻtkir toʻyib ovqatlanmaslik xavfi ostida²⁰.

Uchinchidan, “toliblar” oʻta millatchi guruh ekanligini qayd etish lozim. Masalan, “Tolibon”ning dastlabki boshqaruv davrida ham hazoralar va tojiklarga nisbatan qoʻllagan keskin siyosatini qayd etish oʻrinlidir. Afgʻonshunos olim S.Boʻronovning qayd etishicha, “toliblar”ning asosiy qismini pushtunlar tashkil etganligi va ularning Afgʻoniston hokimiyatida uzoq vaqt hukmron boʻlganligi ham maʼlum maʼnoda ichki vaziyatga jiddiy taʼsir koʻrsatar edi. Ammo, “toliblar” ildizi pushtunlarga borib taqalsa-da, ular umuman pushtunlarning boshqa toifasidan ekanligi vaqt oʻtib ayon boʻla boshladi. “Tolibon” muammosi bilan shugʻullangan mualliflaridan biri ahvolni quyidagicha tavsiflaydi: “Bu yigitlar men 1980-yillarda bilgan mujohidlar – oʻz qabila va urugʻi haqida batafsil hikoya qilishga qodir, tashlab kelgan xoʻjaliklari va vodiysini qoʻmsab eslaydigan hamda afgʻonlar tarixidan afsona va rivoyatlar aytib bera oladigan erkaklardan oʻzgacha dunyo edi. Bu yigitlar oʻz vatanini tinchlik vaqtida hech qachon koʻrmaganlar, Afgʻonistonni bosqinchilarga qarshi yoki oʻz ichidagilarga qarshi urush holatidan boshqa sharoitda koʻrmaganlar avlodidan edi... Ular hech qanday ildizga va ishga ega boʻlmagan, behalovat, iqtisodiy jihatdan beqaror, oʻzligini toʻliq anglab yetmagan aynan urush yetimlari edi”. Pushtunlarning badal (qasos) qonuniga zid ravishda Doktor Najibulloning “toliblar” tomonidan namoyishkorona osib oʻldirishi ham shundan shohidlik beradi²¹. Darhaqiqat, dastlab, “Pushtunvali” kodeksining “Melmastiya” tamoyilini sabab qilib koʻrsatib, “Al-Qoida” yetakchisi Usama Bin Ladenga boshpana berib, keyin Doktor Najibullohni kodeksning badal (qasos) tamoyillariga tamomila zid ravishda oʻldirilishi ham “Tolibon” umuman

¹⁸ United Nations. UN releases report on human rights in Afghanistan since the Taliban takeover. (20 Jul 2022), <https://unama.unmissions.org/un-releases-report-human-rights-afghanistan-taliban-takeover>

¹⁹United Nations. Ten years of Afghan economic growth, reversed in just 12 months: UNDP. <https://news.un.org/en/story/2022/10/1129287>

²⁰ Economic and social development. Report to the United States Congress. (July 30, 2022). – P.100.

²¹ Qarang: Boʻronov S.M. “Tolibon” kelib chiqishining ichki va tashqi omillari. Journal of social research in Uzbekistan. 2022. – P.15-23.

pushtunlarning boshqa toifasidan ekanligidan dalolat beradi. Qolaversa, qariyb uch asrdan beri pushtunlar hokimiyatida o'ziga xos siyosiy institut vazifasini o'tab kelgan "Jirga instituti" ham "toliblar" tomonidan har ikki boshqaruv davrida e'tibordan chetda qoldirilganligi ham yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi.

To'rtinchidan, "toliblar"ga qo'yilgan muhim shartlardan biri terroristik guruhlar bilan hamkorlikni to'xtatish, ularga boshpana va moliyaviy ko'mak bermaslik edi. Biroq, xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'yilgan bu talablar "toliblar" tomonidan bajarilmadi. BMTning 2021-yilgi hisobotiga ko'ra, Afg'onistonda "Islomiy Jihod Ittifoqi", "Islomiy Davlat-Xuroson viloyati", "Al-Qoida", "Katibat Imom al-Buxoriy" kabi turli terroristik tashkilotlarga a'zo bo'lgan 10 000 dan ortiq jangarilar mavjud²². Garchi "toliblar" vakillari terroristik guruhlar bilan aloqalari yo'qligini ta'kidlasa-da, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikka eng katta tahdid soladigan, xavfsiz boshpana topish uchun "Tolibon"ga tayangan xorijiy jangari guruhlarining mamlakatda qolayotgani, 2022-yil 31-iyul kuni Kobulda AQSh dronlari tomonidan "Al-Qoida" yetakchisi Ayman az-Zavohiriyini o'ldirilishi²³ ikki tomon o'rtasida alqoalar saqlanib qolganligidan dalolat beradi. Jumladan, "Tolibon" rejimi "Al-Qoida" bilan eski munosabatlarni tiklagani va uning global qaytishi yaqin bo'lmasa-da, shuni esda tutish kerakki, ushbu terrorchilik tashkiloti o'z xohishi va "Tolibon" bilan kelishuvga ko'ra o'z faoliyatini qisqartirgan. Bitimga ko'ra, "Al-Qoida" ekstremistik guruhi Afg'onistondan xavfsiz boshpana sifatida foydalanishiga yo'l qo'ymaslik haqidagi va'dasini bajarishda "Tolibon"ning xalqaro obro'sini mustahkamlash uchun hozircha soyada qolishga rozi bo'lgan. Biroq, "Al-Qoida" Afg'onistonni qayta qurish va kengaytirish uchun baza sifatida ko'radi²⁴. Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2023-yil iyun oyidagi hisobotiga ko'ra, Afg'onistondagi "Al-Qoida" terroristik guruhining yuqori martabali rahbarlari asosan Kobul, Kunar, Qandahor va Hilmandda joylashgan bo'lib, ularning soni o'nlab kishilarni tashkil etadi. Oddiy "piyoda askarlar"ga kelsak, Afg'onistonda 400 ga yaqin "Al-Qoida" jangarilari, qarindoshlari va tarafdorlari hisobga olinsa, 2000 ga yaqin jangari mavjud²⁵. Albatta, "Tolibon" bilan "Al-Qoida" va shu singari terroristik guruhlar o'rtasida yashirin aloqalarning davom etishi nafaqat "toliblar" hokimiyatini tan olishni ortga suradi, balki turli terroristik guruhlarining Afg'onistonda boshpana topishi xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikka ham katta tahdid soladi.

O'zbekiston-Afg'oniston munosabatlariga milliy-etnik omillarning ta'sirini tadqiq etishda quyidagi muhim jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

²² Бекмурзаев Н. Приход к власти Талибан в Афганистане и угрозы терроризма в Центральной Азии. (04.04.2022), <https://cabar.asia/ru/prihod-k-vlasti-taliban-v-afganistane-i-ugrozy-terrorizma-i-nasilstvennogo-ekstremizma-v-tsentralnoj-azii>

²³ Afghanistan's Security Challenges under the Taliban. (12 August 2022), <https://www.crisisgroup.org/asia/south-asia/afghanistan/afghanistans-security-challenges-under-taliban>

